

зарур;

Тижорат банкларининг бизнес жараёнларини автоматлаштириш, бу жараёнда замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш ва масофавий банк хизматлари турларини кенгайтириш учун зарур шарт-шароитлар ошириш лозим;

Банк ишида етарли даражада тажриба, билим ва обўга эга бўлган стратегик инвесторларни жалб қилган ҳолда, қатор тижорат банкларида давлат улушкини камайтириш;

Ўзбекистоннинг атроф-муҳитга заарар келтирмайдиган худудлари аҳолиси учун яхшиланган ва арzon турмуш шароитларини таъминлаш мақсадида, яшил кредитлашнинг жорий этилиши лозим. Натижада Ўзбекистон аҳолиси ўртасида энергия тежамкор ва кам углеродли уйжойларга талабнинг ошишига олиб келади.

Банк хизматлари бозорига янги финтех компанияларини кириб келишига қулай шарт-шароитлар яратиш ҳисобига инновацион онлайн рақамли хизматларни ривожлантириш лозим;

Тадбиркорлик субъектлари лойиҳаларини молиялаштириш учун молиявий воситаларни кенг қўллаш ва нобанк кредит ташкилотлари фаолиятини, ислом молиясини ривожлантириш орқали кичик тадбиркорлик субъектларини молиялаштиришни кенгайтириш;

Банк ходимлари малакасини ва стрессга чидамлилигини ошириш, банкларда ходимларни бошқаришда KPI мезонлари асосида уларнинг фаолиятини баҳолашни ҳамда рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш

Умуман олганда, ЎЗБЕКИСТОН- 2030 Стратегияси доирасида банкларнинг устивор вазифалари сифатида банк хизматлари оммаболигини ошириш ҳамда улардан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш масалалари ҳисобланади. Шунингдек, аҳолининг кредит ва тўлов ташкилотларига бўлган ишончини мустаҳкамлаш орқали аҳоли фаровонлиги, молиявий тизим ва иқтисодий ўсишнинг барқарорлигини таъминлашга ҳамда мамлакатда яширин иқтисодиёт улушкининг қисқаришига хизмат қиласи.

## IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

*Risqibekova Nozimaxon  
TDIU, Moliya va moliyaviy texnologiyalar  
kafedrasи assistenti*

Yashil iqtisodiyot ekologik va iqtisodiy adolat tamoyillarini hurmat qiladigan barqaror rivojlanishning muhim jihatiga aylanmoqda. Iqtisodiyotini modernizatsiya qilishga intilayotgan O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish barqaror kelajak yaratish yo'lidagi asosiy qadamdir.

XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biri ekologiya hisoblanadi. Har bir mamlakat rivojlanishi bilan bir qatorda ekologik muammolarga duch kelishi mumkin. Barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishda atrof - muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni taqazo qiladi. Dunyo bo'ylab ekologik xavf-xatarlar vujudga kelmoqda. Buning oldini olish uchun har bir mamlakat ekologik islohotlar bilan bir qatorda iqtisodiyotini ekologik toza iqtisodiyotga o'tkazishga urinmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston o'zining hozirgi rivojlanish modeli bo'yicha o'sish chegaralarini yengib o'tish hamda iqlim va ekologiyadan xabardor bo'lib borayotgan jahon bozorida iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash yo'lidagi noyob imkoniyatni yaxshi tushunadi. Mamlakat tarkibiy islohotlarning jadallashuviga tayangan holda, o'z iqtisodiyoti, odamlar va sayyoramiz uchun, rivojlanayotgan sohalarda yangi ish o'rinalarini yaratish bilan birga tabiiy resurslardan Moslashuvchan, Inklyuziv, Barqaror va Samarador (MIBS) foydalanishga asoslangan past uglerodli va iqlimga chidamli "yashil" o'sish modeli sari yo'lni belgilash bo'yicha qadamlar tashlamoqda.


2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasida mamlakatimizni uzoq muddatli istiqbolda jahonda taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishning ustuvor yo'nalishi sifatida cheklangan, takror ishlab chiqarilmaydigan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish vazifalarini hal etish ko'zda tutilgan[1]. Ushbu strategik maqsadlarga erishish uchun amaliyatda qo'llanilayotgan texnologiyalarni modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish yalpi ichki mahsulot birligiga sarflanayotgan issiqxonalarining solishtirma chiqindilarini 2030-yilda 2010-yilga nisbatan 10 foizga kamaytirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini 100 foiz zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta'minotidan foydalanishga o'tkazish, ekologik yaxshilangan motorli yoqilg'i va avtomobil ishlab chiqarishga o'tish, elektr transportini jadal sur'atlarda rivojlantirish vazifalarini hal etish lozim.

Global miqyosda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni uzoq muddat va katta miqdordagi investitsiyalar talab etishi, asosiy e'tibor tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Xalqaro energetika agentligi proqnozlariga ko'ra, 2050-yilgacha atmosferaga chiqarib yuboriladigan CO<sub>2</sub> emissiyasini ikki baravarga kamaytirish uchun "yashil iqtisodiyot"ga dunyo yalpi ichki mahsulotining 1-2,5foizi darajasida qo'shimcha investitsiyalar sarflash zarur.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, moliyaviy siyosat asoslarini iqlim o'zgarishini yumshatish va emissiyani kamaytirish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish turli islohotlarni o'zida mujassam etadi. Misol tariqasida, ekologik maqsadlarni byudjet moliyalashtiruvi va soliq siyosatini isloh qilish bilan integratsiya qilishni aytib o'tishimiz mumkin. O'zbekistonda YaIMning 10 foizi energiya resurslari subsidiyalariga to'g'ri keladi: bu sohani qayta ko'rib chiqish toza energiya manbalaridan foydalanish va tabiiy resurslardan oqilona

foydalishni rag'batlantirishga yordam bergen bo'lardi. O'zbekistonda 2030-yilgacha elektr energetika sohasini karbonsizlantirish uchun zarur bo'lgan investitsiya yiliga 4 milliard AQSh dollari yoki YaIMning 4.8 foizi miqdorida baholanadi (Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi). Shu tariqa, moliyaviy siyosat va subsidiyalarni qayta ko'rib chiqish, shuningdek, davlatning "yashil" xaridlari modelini joriy etish "yashil" o'tishni tezlashtirishga yordam beradi. Ko'pgina mamlakatlarda emissiyani kamaytirishda qo'llaniladigan "uglerod" solig'i tizimini ham ko'rib chiqsa bo'ladi.

Yashil moliyalashtirish manbalarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:



### 1-rasm. Yashil moliyalashtirish manbalari<sup>87</sup>

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun katta investitsiyalar talab etimoqda, shuning uchun birgina davlat byudjeti yetarli emas. Past uglerodli texnologiyalarga xususiy investorlarni faol jalb qilish zarur. O'zbekiston "yashil" o'tish sari qadam tashlamoqda, bu innovatsion fiskal vositalarni joriy etish orqali to'ldirilishi mumkin. Uglerod va yoqilg'i solig'ini iqtisodiy modellashtirish hukumatga toza energiya va toza yoqilg'ini kengroq joriy qilish uchun rag'batlarni yaxshiroq aniqlashga yordam beradi; shuningdek, "yashil" fiskal islohotning taqsimot jihatlariga mos keladi.

"Yashil" davlat xaridlarini kengaytirish "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirishning yana bir siyosiy vositasidir. Iqlim bo'yicha xalqaro moliyalashtirish imkoniyatini oshirish juda muhim. Subyektlarni "Amalga oshiruvchi agentliklar" sifatida akkreditatsiya qilish orqali "Yashil" Iqlim Jamg'armasiga (YIJ) kirishini amalga oshirish mumkin. Bank sektori YIJ akkreditatsiyasini olish va YIJ ga loyiha takliflarini muvaffaqiyatli tayyorlash va taqdim etish uchun qo'shimcha o'qitish va salohiyatni oshirishni talab qiladi.[2]

"Yashil" qonunchilik, "yashil" infratuzilmani rejalashtirish, byudjetlashtirish va ulardan foydalishda tegishli tartibga solish organlari, vositalar hamda salohiyatni oshirish xususiy sektorni "yashil" moliyalashtirish va investitsiyalarga jalb qilish uchun zarurdir. "Yashil" investitsiyalarning samaradorligini baholash uchun natijalar monitoringi tizimini yaratish kerak.

<sup>87</sup> Iqtisodiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi

Xalqaro tajriba va Jahon bankining ko'rsatmalari O'zbekistonga zamonaviy "yashil" taksonomiyanı joriy etishda, jumladan "yashil" investitsiyalar va "yashil" xaridlar ko'lami, yo'riqnomalari va mezonlari asoslarini shakllantirishda yordam berishi mumkin.

"Yashil" investitsiya imkoniyatlari mahalliy hamda xalqaro miqyosda investorlar va potentsial investitsiyalarni bog'lash uchun davlat va xususiy ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlikni taqozo etadi. Mahalliy kompaniyalar qayerga investitsiya kiritishni biladilar, xalqaro kompaniyalar esa investitsiya kiritish imkoniyatlarini qidirmoqdalar. Ular o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish umumiyl manfaatga aylanadi. "Yashil" kreditlar va "yashil" bank mahsulotlari haqida xabardorlikni oshirish, shuningdek, iqlim o'zgarishining ta'siri va loyihalar samaradorligining iqlimga bog'liqligi hamda ahamiyati haqidagi ma'lumotlarni mahalliy tadbirkorlar o'rtasida tarqatish, ularning mavzuga qiziqishini oshirishga yordam beradi.

Xulosa.

"Yashil" iqtisodiyot bilan bog'liq loyihalar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun "yashil" kreditlar foydalilaniladigan uskunaning o'zini qoplash muddatidan kam bo'lмаган muddatga va loyihaning rentabelligidan yuqori bo'lмаган foiz stavkasida berilishi kerak. Ba'zi mamlakatlarda yashil kredit imtiyozli sifatida tushuniladi, ya'ni u odatdagidan pastroq foiz stavkasiga ega. Ayni paytda O'zbekistonda "yashil" loyihalarni rivojlantirishga harakat qilayotgan tadbirkorlarning so'zlariga ko'ra, xalqaro tashkilotlar O'zbekiston banklarida "yashil" kredit liniyalarini yaratib, u yerga mablag' o'tkazayotgan bo'lsada, bunday kreditlarni hozircha olishning iloji yo'q. Hozircha esa shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirish faqat "yashil loyihalar" uchun kreditlarga maqsadli mablag'lar ko'rinishida mavjud, xolos. Biroq hukumat tomonidan qabul qilingan muayyan chora-tadbirlarga qaramasdan, imtiyozli foizlar haqida hozircha gap yo'q. Vaziyatni yumshatishga qaratilgan sa'y-harakatlar, masalan, yashil startaplar uchun bir yil oldin amalga oshirilgan.

Yashil moliyalashtirish bilan bog'liq yuqori risklar, yetarli darajada daromadlilikka ega bo'lmashlik xususiy investorlarning ekologik loyihalarga investitsiya sarflashlariga to'sqinlik qilishi mumkin. Ular tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ulgerodlar narxining shakllanishi – "yashil investitsiyalar" miqdorini hisoblashda xarajatlar qiymatini aniq hisoblash zarur;
- yoqilg'i qazib chiqarish uchun ajratilayotgan subsidiyalarning mavjudligi; "yashil loyihalar"ni amalga oshirishda birlamchi xarajatlarning yuqoriligi va "yashil investitsiyalar"ni qoplash muddatining uzoqligi;
- texnologik risklarning mavjudligi;
- tranzaksion xarajatlarning yuqoriligi;
- sof energiya manbalarining amaldagi energiya tizimiga integratsiyalashuvi bilan bog'liq xarajatlarning yuqoriligi;
- axborotlarning yetishmasligi va boshqa risklar. Shuning uchun davlat bu yo'nalishda xususiy investorlar uchun qulay investitsion muhit yaratishi lozim.

Davlat tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni qo’llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi siyosiy, moliyaviy va soliq dastaklarini qo’llash samarali hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 — 2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash” to’g’risidagi 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son qarori.

2. IFC (2013): Mobilizing Public and Private Funds for Inclusive Green Growth Investment in Developing Countries - An Expanded Stocktaking Report Prepared for the G20 Development Working Group, IFC Climate Business Department; and Spratt and Griffith-Jones (2013): Mobilising Investment for Inclusive Green Growth in Low-Income Countries, GIZ.

3. <https://zoinet.org/wp-content/uploads/2022/07/UZB-WB-Green-Growth-2022-uz.pdf>

## **АКТУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ТЕРРИТОРИЯМИ И РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИЙ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА**

**Сроржиддинова Зарина**

*Ташкентский государственный  
экономический университет,  
к.э.н., доцент*

**Бабаджанова Лола**

*старший преподаватель Ташкентского  
международного университета Кимё*

На современном этапе реализации приоритетов Стратегий развития Узбекистана до 2026 и 2030 годов один из важнейших целевых показателей -децентрализация государственного управления [1,2] достижение которого определено приоритетной задачей деятельности всех государственных органов и организаций, и предусматривает ускорение работ по децентрализации государственного управления, организацию эффективной работы территориальных подразделений органов государственного управления всех уровней в решении задач по развитию регионов, организации государственного управления, ориентированного на служение народу, и совершенствование общественного управления [2]. Президент Узбекистана Ш. Мирзиёев поставил задачу - к 2030 году обеспечить передачу не менее 30 процентов задач и функций республиканских органов исполнительной власти местным исполнительным органам [1]. В этой связи особо актуально звучат вопросы, связанные с расширением и передачей все больших полномочий по управлению и принятию решений на места в частности в вопросах закрепления за местными властями собственных источников и видов